

LITERATURE IN THE INTERPRETATION OF WORLD WRITERS**Mubina Ortiqboyeva**

She is a 2nd year student of military journalism at the Uzbek University of Journalism and Mass Communications

Abstract: Literature is a source of knowledge and theories that is comprehensive in all respects, has its own audience, calls people to spiritual maturity, expands their worldview. There are many theories on the coverage of world writers. I am sure that our love for literature will grow once again.

ADABIYOT JAHON ADIBLARI TALQINIDA**Mubina Ortiqboyeva**

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti harbiy jurnalistika yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Adabiyot bu – har jihatdan keng qamrovli, o'z auditoriyasiga ega, insonni ma'nan yetuklikka chorlovchi, dunyoqarashni kengaytiruvchi, bilim va nazariyalar manbayidir. Keng qamrovliligi bo'yicha jahon adiblari talqinidan ham ko'plab nazariyalar mavjud. Ushbu talqinlarni ko'rib chiqar ekanmiz, adabiyotga bo'lgan muhabbatimiz yana bir karra ortishiga ishonchim komil.

Amerika yozuvchisi Ernest Xeminguey fikrlariga ko'ra adabiyot – faqat yaxshi o'rgangan, yaxshi biladigan narsalar haqida yozish, yozganda ham samimiy va rost yozish kerak, tasvirlangan holat inson qalbini o'rtab yuborsin, voqelikni baxolashga yordam bersin, o'quvchi boshidan kechirgan voqelikning bir qismiga aylanib qolsin.

Fransuz faylasufi Alber Kamyu talqinida, tariximizning aqldan ozgan yigirma- o'ttiz yilida hamma tengdoshlarim qatori davr talvasasi oldida butkul esankirab va ojiz holda qolarkanman, bu kunlarda yozuvchi bo'lish sharaf degan elas-elas hissiyotdan o'zimga tayanch topdim, shunga ko'ra bu tayanch menga majburiyat yukladi. Xususan, menga bizning umumiy tariximiz zarbalarini o'ziga qaratganlar taqsimlab olgan baxtsizlik va umidlar yukini kuchim va imkonim qadar zimamga olish majburiyatini yukladi.

Qadimgi yunon faylasufi Arastu nazdida – tarixchi olim bilan shoir o'z asarlarini biri vaznsiz, ikkinchisi vaznga solib yozishi tufayligina bir-biridan farqlanmaydi. Agar Gerodotning asarlari she'riy vaznga solib yozib chiqilsa ham baribir tarixiy asarligicha qoladi.

Adabiyotni ispaniyalik rassom Pablo Pikasso shunday tasvirlaydi, - siz tushunmayman, deb aytyapsizmi? Sababini faqat o'zingizdan qidiring. Siz naqadar kambag'alsiz, modomiki, tuyg'uni aql bilan bog'lay olmas ekanmiz. Qadimgi yunon faylasufi aplotun fikricha- mard yoki qo'rqqoq odamning harakatlari va qo'shiqlariga kelsak, adolat yuzasidan shuni tan olib aytish joizki, mardlarda ular go'zal va jozibali, qo'rqqoqlarda esa xunuk va jirkanchlidir.

German yozuvchisi Frans Kafka tavsificha – uydan tashqariga chiqishingga xojat yo'q. Yozuv stolingdan jilma va tingla. Xatto tinglama ham, faqat kut. Xatto kutma ham, shunchaki sukut saqla va yolg'iz bo'l. Shunda olam o'zini oshkor etishni boshlaydi, u boshqacha bo'la olmaydi, u sening qoshingda ilojisiz o'zining arzu jamolini namoyon etadi.

Braziliyalik yozuvchi Paulo Koelo fikricha, - mening ishim yozish, tanqidchilarning vazifasi esa tanqid qilish. Tanqidchilar hamma vaqt yozuvchilarga yordam berishgan. Men romanlarim haqidagi tanqidchilarning fikrlaridan xafa bo'lganim yo'q. Sodda barchaga birdek tushunarli usulda yozganim sababli ular meni yaxshi yozmaydi, deb tanqid qilishadi. Nazarimda badiiy asar yozishning aniq bir yo'l-yo'rig'i bo'lmas kerak. Xar qaysi yozuvchi o'zi alohida shaxs, o'ziga xos xislatlari, o'ziga mos o'quvchilari bor. Shu kungacha ko'nglimda biror-bir tanqidchiga kek saqlamaganman. Mashxurligimdan mag'rurlanib ketmadim ham. Xar doimgidek ochiqko'ngil, samimiy insonlarga do'st-birodar bo'lishga intilaman.

Turli xil jahon madaniyat namoyondalari ham adabiyot olamiga, uning, jozibasiga, naqadar tengsiz iboralar keltirib o'tkanligini, ko'rib turibmiz. Adabiyot har bir xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lovchi ta'sir kuchiga ega bo'lgan kuchdir. Unda har bir millatning madaniyati, urf-odati, dunyoqarashi, ma'naviyati aks etadi. Demak, adabiyot yshasa, millat yashaydi, qadriyatlari qadr topadi.